

DEVELOPMENT OF LITERARY PRONUNCIATION IN PRIMARY EDUCATION BY TEACHING PUPILS THE CORRECT PRONUNCIATION IN MOTHER TONGUE LESSONS

Atamurodova Gulnora Shermurodovna

ISFT instituti Samarqand filiali filologiya va tillarni o'qitish
kafedra o'qituvchisi

Uzoqova Durdona Muratali qizi

ISFT instituti Samarqand filiali boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Abstract:

The article aims to teach students literary pronunciation by forming correct pronunciation skills in native language lessons of primary education. As well as the development of teaching tasks and exercises that form the correct pronunciation skills, their application in practice.

Keywords: Literary pronunciation, speech sounds, exercise and assignment, program and textbook.

Introduction

Ta'lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki insoniyat tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida "Nimani o'qitish va qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob izlab kelgan va hamon izlamoqda.

Adabiyotlarda "ta'lim mazmuni" tushunchasi bilan birga "o'quv material" atamasi ham qo'llaniladi. Didaktikada o'quv material tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda u "ta'lim mazmuni" tushunchasiga teng bo'lsa, tor ma'noda ma'lum darajada o'rganilishi kerak bo'lgan, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi tushuniladi. Ta'lim mazmuni deganda 1) o'quv rejalari, 2) o'quv dasturlari, 3) darsliklar hamda 4) o'quv-metodik qo'llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga oladi [1, 128]. Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyevaning ta'lim mazmuniga o'qituvchini ham kiritishi nihoyatda to'g'ri yondashuv [2, 262]. Chunki til sathlaridan aynan to'g'ri talaffuz va orfoepiyani o'qitishda o'qituvchining roli juda muhim bo'lib, o'quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o'qituvchidan o'rganadilar.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim mazmunining yoyilmasi o'qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" darsliklarida to'g'ri talaffuzning o'rganilishi ayrim holatlarni ta'rif va tavsiflash bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, o'zbek tilining fonetik qurilishi o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, uni o'zlashtirish nafaqat xorijliklardan, balki o'zbeklardan ham qunt bilan ishlashni talab etadi. Zero, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning o'z nutqlarida g'ayritabiiy talaffuzlardan foydalanishlari kishining g'ashini keltiradi va bu holat ularning adabiy talaffuz me'yorlarini to'g'ri o'zlashtira olmaganliklarini sezdirib turadi.

Vaholanki, o'zbek o'quvchilariga ham to'g'ri talaffuz ta'limi jarayonida faqat nutq organlarining darslikdagi umumiy grafik chizmasi bilan chegaralanib qolmasdan, tovushlar talaffuzi holati aks etgan maxsus chizmalar asosida ta'lim berish, fonetik mashqlarga imkon boricha boshlang'ich sinflarda ko'proq o'rin ajratish, yuqori sinflarda ularga o'rni bilan qaytib turish adabiy til me'yorlarini egallashning muhim omili ekanligini shu o'rinda alohida ta'kidlash lozim. Boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklarida ham, oliy ta'lim darsliklarida ham fonetik mashqlarga o'rin ajratilmagan. Bu holat o'zbek adabiy talaffuz me'yorlarining o'quvchi va talabalar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta'limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo'lamiz [3, 149].

Shu o'rinda "mashq" va "topshiriq" atamalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni hamda ahamiyati haqida to'xtalish joizdir. Metodist M.Saidov o'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish faoliyatlari davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi [4, 25].

Tilshunoslikning "To'g'ri talaffuz" bo'limi, "Orfografiya" va "Orfoepiya" bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ularni o'qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan mazkur ishda mashq va topshiriq atamalariga o'zgacha yondashildi. Darslik va qo'llanmalarda ko'p uchraydigan "mashq", "topshiriq" atamalar o'zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo'q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo'lgan qator darslik va qo'llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o'rnida boshqasining qo'llanilishi kabi holatlarni ko'rish mumkin.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da mashq atamasiga shunday ta'rif berilgan: "**Mashq 1.** [arabcha. –husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko'kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro'parasida kitob o'qib

o'tirar edi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko'p mashq ko'rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo'lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar. 2. Ma'lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar. Jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo'llarini ushlab, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan [6, 562].

“Pedagogika Ensiklopediyasi”da mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashgan va ta'lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko'rish mumkin:

Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash hamda o'qish va yozish maktab ta'limida ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi [7, 223].

Topshiriq atamasiga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha ta'rif berilgan: **“Topshiriq** 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig'i. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit bo'ldi. Axir, u bu yerga o'ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan” [8, 150].

Ko'rinib turibdiki, har bir atama o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ya'ni, **mashq** muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Demak, mashq – ko'nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma'lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o'xshaydi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o'quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “Ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma'lumotlar, ya'ni grammatik qoidalar o'quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta'lim mazmunida o'quvchi egallashi ko'zda tutilgan ko'nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o'rinda ko'proq o'quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so'ng ham o'quvchi va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak, degan ta'kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko'proq tegishlidir. Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilg'or mahsuli bo'lgan maqol, matal, hikmatli so'zlar, tasviriy ifodalar, iboralar ona tili ta'limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o'quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O'z o'rnida va o'z vaqtida o'quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o'zlarida hosil bo'lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Adabiy talaffuz va uning me'yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o'rganilganligini kuzatamiz [ingliz, fransuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida,

jumladan, ingliz tilida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarida har bir nutq tovushining hosil bo'lish jarayoni haqida batafsil ma'lumot beriladi. O'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim tovushlarning to'g'ri talaffuzini oddiy, an'anaviy mashqlar bilan yetarli darajada o'rgatib bo'lmashligini bugungi o'quvchi, talaba, hatto ayrim katta yoshdagi ziyoli kishilar, xususan, o'qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.

O'zbek adabiy tili turli lahjalaridan o'sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog'liq jiddiy muammolar bor. Shu ma'noda dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtayi nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolari e'tiborga olinishi lozim. Masalan, Xorazm vohasida ayrim so'zlar talaffuzida [q] undoshi o'rnida [k] nutq tovushini qo'llash ko'nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik o'quvchiga adabiy talaffuz me'yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo'lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o'quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o'quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o'qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Toshkent viloyati, xususan, shahar hududida ommaviy tarzda [h] bo'g'iz undoshi o'rnida muntazam [x] chuqur til orqa undoshining ishlatilishi (xandaley, xurmat, xamma va boshq.), shuningdek, Buxoro, Samarqand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [o'] unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.

Bu borada Samarqand viloyatiga alohida to'xtalish mumkin. Pastdarg'om, Urgut va Nurobod tumanlarida [i]–[ye] unlilarining aytilishida chalkashliklar borligi kuzatiladi. Xuddi shunday Kattaqo'g'on tumanida [o']–[u] unlilarining ishlatilishida muammolar mavjud. Mazkur hududda yashovchilar, o'quvchilar, hatto o'qituvchilar ham [o'] unlisini [u], [u] unlisini [o'] o'rnida qo'llaydilar.

Shuningdek, [h] bo'g'iz undoshining ko'pchilikning ham yozma, ham og'zaki nutqda noto'g'ri qo'llanilayotgani, uni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlarning deyarli sezilmayotgani bu borada zarur tavsiyalar ishlab chiqishni va ularni zudlik bilan amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi.

1999-2000-yillar keng amaliyotda qo'llangan H.Ne'matov boshchiligidagi yaratilgan 5-sinf "Ona tili" darsligida [h] va [x] undoshlarini imloda ham talaffuzda farqlash uchun berilgan o'quv materiallari boshqalariga nisbatan o'quvchiga ancha foydali [9, 102].

Mashq uzluksiz takrorga asoslangandagina samara beradi. O'quv materiallarining o'quvchi tomonidan samarali o'zlashtirilishi takror bilan bog'liq. Zero, "Bilimning onasi takror"dir.

Ma'lumki, psixologik nuqtayi nazardan inson xotirasi, jumladan, o'quvchi xotirasi ham muayyan turlarga bo'linadi. Ma'lumotlarni bir marta o'qish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa muddatda unutiladi. Agar uzluksiz takrorlansa, u doimiy xotiraga o'tadi. E.G'oziyev ta'kidlagan G.Ebbingauzning o'quvchi eslab qolishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tarkibi, miqdori va sifati haqida olgan xulosalarini shu o'rinda keltirish o'rinli. U hech qanday ma'no anglatmaydigan 38ta bo'g'inni o'quvchi 55 marta takrorlaganda eslab qolganini; 38 – 40ta so'zdan iborat materialni eslab qolish uchun esa, 6-7-marta takrorlash kifoya qilganni

aniqlagan [10, 221]. O'quvchining ijtimoiy hayotda aloqa-aralashuvini to'g'ri amalga oshirishida xizmat qila oladigan zaruriy ma'lumotlarni uning uzoq muddatli xotirasiga o'tkazish uchun o'sha ma'lumotlarni ko'p marta takrorlatish va xotirasida qayta tiklab turish lozim. Shu o'rinda aytish mumkinki, to'g'ri talaffuz sathini o'qitishda mashq va topshiriqlarning o'quv materialini tashkil etuvchi sermazmun, purhikmat matnlardan o'rinli foydalanilsa, o'quvchi ularni bir-ikki takrorlash bilan uzoq muddatli xotirasiga "yozib qo'yadi". Biror jismoniy harakat avtomatlashish darajasiga yetishi uchun qancha uzluksiz mashq zarur bo'lsa, muayyan nutqiy malakaning shakllanishiga ham shuncha mashq, harakat kerak bo'ladi.

O'quvchining og'zaki nutqi tug'ilib o'sgan yeri, oilasi, yaqinlari ta'sirida shakllangan holda maktabga keladi. Ba'zan ularni o'zlari o'rganib qolgan holatdan adabiy talaffuz me'yorlari doirasiga o'tkazish ancha qiyinchilik tug'diradi. Bunday sharoitda o'qituvchi, albatta, to'g'ri talaffuz o'qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim o'quvchilar balog'atga yetganda ham ba'zi nutq tovushlari talaffuzini eplay olmaydigan bo'lib qolishadi. Bu kabi "nutqiy kemtiklik" madaniy davralarda o'quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O'qituvchi o'z vaqtida og'zaki nutqida muammolari bor o'quvchilarga alohida e'tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, muammoga o'rin qolmasligi aniq.

Fikrimizcha, to'g'ri talaffuzga doir o'quv materiallarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlilidan kelib chiqib bu boradagi muammolarni atroflicha o'rganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A, Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Ona tili o'qituvchilari uchun qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1995, 128 b.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok-ri diss. avtoref. –T.: TDPU, 2006, 262 b.
3. Ramazan Q, Qayyumiy X. Grammatik. Sarf. Ota maktablar uchun darslik. I qism. –T.: Oquvpeddavnashr, 1937, 149 b.
4. M.Saidov . O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref. –T.: TDPU. 2000, 25 b.
5. Mahmudov N, Nurmonov A, Sobirov A, Qodirov V, Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –T.: Ma'naviyat 2015, 224 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild.–T.: O'zME, 2004, 562 b.
7. Pedagogika Ensiklopediyasi. 2-jild. –T.: J – M, 2012, 223-b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild.–T.: O'zME, 2004, 150 b.
9. Ne'matov H. va boshq. Ona tili. 5- sinflar uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2000, 102 b.
10. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. –T.: Universitet, 2002, 221-222 b.